




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiya materiallari



2023-yil
19-oktabr

“O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Mas’ul muharrir: Sh. Sirojiddinov – Toshkent, 2023.

Mas’ul muharrir:

Sh. Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

O.Jamoldinova – ilmiy va innovatsiya ishlari bo’yicha prorektor

H.Dadaboyev – filologiya fanlari doktori, professor

B.Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor

Z.Xolmanova – filologiya fanlari doktori, professor

M.Xakimova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

M.Umurzoqova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.Muhammadiyeva - filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.Shamsiyeva – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta o’qituvchi

K.Rixsiyeva – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta o’qituvchi

I.O’razova – filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta o’qituvchi

S.Bozorova – katta o’qituvchi

M.Xolmuradova — filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), katta o’qituvchi

Z.Davronova – o’qituvchi

Z.O’rinova – o’qituvchi

A.Yusupova – o’qituvchi

M.Abduzizova – o’qituvchi

S.Qahhorova – tayanch doktoranti

Ushbu ilmiy maqolalar to’plami O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoniga muvofiq “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiya”sida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2023-yilning 19-oktabr kuni ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida asosida tashkil qilingan “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallarini o‘z ichiga oladi. Maqolalar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, turkologiya, shevashunoslik, lug‘atshunoslik, o‘zbek tilshunosligidagi zamonaviy yo‘nalishlar masalalariga bag‘ishlangan. Maqolalarda o‘zbek tilining tarixiy ildizlarini yoritish, mumtoz manbalardagi tilshunoslikka doir qarashlarni o‘rganish, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvopoetika, lingvofolkloristika, lingvodidaktika, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi kabi zamonaviy yo‘nalishlarda integrativ yondashuv asosida tadqiqotlar olib borish, til nazariyasi va amaliy tilshunoslik, tarjimashunoslik muammolarini tahlil qilish o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan. Mazkur to’plam tilshunoslikka doir masalalarni o‘zbek tili tarixi va bugungi taraqqiyotini uyg‘unlikda hamda integratsiya asosida tadqiq qilishga yo‘naltiradi. Mazkur to’plam professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, tadqiqotchilar, magistrantlar hamda barcha qiziquvchilarga mo‘ljallangan. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2023-yil 7-oktabrdagi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (2-sonli bayonnoma)

<i>Mahkamova D.</i>	Terminologik modernizatsiyada shakliy omilning voqelanishi	131
<i>Mamadjanova M.</i>	Miqdor maydonining o'zbek tilshunosligida o'rganilishi	134
<i>Davronova Z.</i>	Taxalluslarining o'ziga xos talqini va tahlili	138
<i>Ismailova H.</i>	Semantic and structural peculiarities of euphemisms	142
<i>Toshpo'latova N.</i>	O'zbek tilining frazeologik lug'atidagi emotsional-eksprissiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili	145
<i>Qurbonova G.</i>	Metaforik ifodalarda astronomlar	150
<i>Xasanova M.</i>	Bilingvizmning shaxsning intellektual rivojlanishiga ta'sirini baholash	155
<i>Sattarova N.</i>	Asaka tumani godonimlari tarkibida etnonimlarning o'rni	161
<i>Jamoliddinova I.</i>	O'zbek tilida "qat'iyat" konseptini ifodalovchi turg'un konstruksiyalar	165
<i>Alimardanov E.</i>	Jozef budensning "xiva tatarchasi" maqolasi xususida	168
<i>Norqulov F.</i>	O'zbek tili funksional uslub tasniflari va ularning xususiyatlari	172
<i>Xudoyberdiyeva G.</i>	Terminlar va umumleksik birliklarda polifunksionallik hodisasining o'rganilishi tahlili	176
<i>Quraqova Sh.</i>	Piktogrammalarning qo'llanilish doirasi (yo'nalish, belgilash va yo'l belgilari misolida)	178
<i>Qodirov U.</i>	Atoqli shevashunos olim	182
<i>Ro'ziyev E.</i>	Siyosiy diskursning lingvistik maqomi	186
<i>Turdialiyev A.</i>	Denov qipchoq shevalarining ba'zi xususiyatlari	191
<i>Kenjayev Z.</i>	O'zbek tili oronimlarining hosil bo'lishi	196
<i>Журабоева M.</i>	Роль узбекского языка в мире: анализ и перспективы	200
<i>Tashmatova N.</i>	"Gulshan ul-asror" asari leksikasida yasama so'zlar tahlili	203
<i>Yodgorov J.</i>	Badiiy matnda undov	207
<i>Qahharova S.</i>	Harakat usulini ifodalovchi fe'llarda troponim-gipernim munosabati	210
<i>Mirzayeva G.</i>	Neyrolingvistik tadqiqotlar xususida	213
<i>Muzaffarova Z.</i>	Lingvistik birliklarning she'riyatda qo'llanilishi. (Erkin Vohidov ijodi misolida)	215
<i>Imomov E.</i>	Issues of stabilization of basic lexical structure of profession	219
<i>Bekmurodov T.</i>	Jadidlar davrida matbuot va nashiryot terminlari	221
<i>Musurmonqulov A.</i>	Graduonimik darajalanish sistemaviy munosabatlarning bir ko'rinishi sifatida	224
<i>Malikova I.</i>	Til birliklarining paradigmatic munosabati	227
<i>Qudratova S.</i>	sotsiolingvistik tadqiqotlarning shakllanishi	230
<i>Mamirova X.</i>	Perseptiv lug'at va o'zbek bolalari ongida perseptiv lug'at shakllanishining psixolingvistik omillari	234
<i>Yokubbayeva U.</i>	"Yangi o'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida qo'llangan frazeologik birliklarning funksional-semantik tahlili xususida	237
<i>Allaberganova N.</i>	O'zbek tilidagi reklama matnlarida takrorlarning lingvokognitiv xususiyati	243
<i>Xojiyev Y.</i>	O'zbek tilida milliy xarakterning kichraytirish-erkalash affikslari orqali ifodalanishi	245
<i>Isagova M.</i>	Lotin tilidan o'zlashgan xalqaro huquqiy terminlar	248
<i>Murotov H.</i>	Radio reklama matnlarida kommunikativ strategiya va taktikaning namoyon bo'lishi	251
<i>Abdusalilov M.</i>	O'xshatishlarning o'zbek va rus tilshunosligida o'rganilishi	256

Элеса Иосифовна. Семиотика политического дискурса. Дис. ... д-ра филол.
10.02.19 - М.: РГБ, 2005 (Из фондов Российской Государственной
[Электронный ресурс]) Полный текст:
<http://www.elisa.ru/Ess/02/0004/020004014.pdf>.

Е.А. Политический текст как средство речевого воздействия, с.24.
www.psych-portret.ru

М. Сиёсий лингвистиканинг фалсафий асослари. -Т.: "Akademiya". 2013. -б.

А.П. Политическая лингвистика: Учеб. пособие / Москва. Изд-ва "Флинта",
2006. -с.36.

DENOV QIPCHOQ SHEVALARINING BA'ZI XUSUSIYATLARI

SOME CHARACTERISTICS OF DENOV KIPCHOK LANGUAGES

Turdialiyev Anvarbek *

Dissimilatsiya. Ushbu maqolada Denov kichik dialekt zonasidagi qipchoq lahjasida
qayalgan ayrim fonetik jarayonlar va egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalarining variant,
qayalarini qo'llanishi hamda ularning atrof shevalarga munosabati haqida ma'lumot
berilgan. Maqola Surxondaryo viloyat shevalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar va aholi
yashayotgan joylaridan to'plangan dala ma'lumotlari asosida qiyoslab tahlil qilindi.

So'zlar: singarmonizm, diftong, dissimilatsiya, spirantizatsiya, kelishik, ko'plik, egalik,
qo'shimchalar, qaratqich-tushum, sheva, affiks, birlik, variant.

Abstract. This article provides information about some phonetic processes and the use of
suffixes and variations of possessive, plural, and agreement suffixes in the Kipchak dialect of
the Denov sub-dialect zone, as well as their relationship to surrounding dialects. The article was
compiled and analyzed on the basis of research conducted on the dialects of Surkhandarya
region and field data collected from the places of residence of the population.

Key words: synharmonism, diphthong, dissimilation, spirantization, agreement, plural,
possessive, kipchak, accusative, dialect, affix, singular, variant.

Denov qipchoq shevasida fonetik jarayonlar. Singarmonizm qoidasi barcha turkiy tillarda
qat'iy bo'lib, o'zbek adabiy tiligina bu qoidaga amal qilmaydi. O'zbek adabiy tilining boyligi
tashqari shevalarda esa bu qonunning amal qilishini kuzatishimiz mumkin. Barcha qipchoq
shevalarida mavjud bo'lgan singarmonizm qonuni Denov qipchoqlari shevasida ham
mavjud. O'rganilayotgan hudud shevasida singarmonizmning ikki xil ko'rinishini ham
qat'iy kuzatishlar jarayonida oydinlashdi.

Qo'shimchalar yoki palatal singarmonizm: aldarko'sa ~ ällärkösä, dushmanlarga ~ dušmannarya,
qannajdi ~ qannajdi, ko'kanladi ~ kökännädi, yo'liqib qoldim ~ žolıyıp qaldım (o'zgarish),
qargilik qilar ekan ~ zärgärlik qılarkan, bevafoqlik qilgan emas ~ beväpäli:, qıyanamas, fotiha ~
fotih, og'irgina ~ avuryana;

Labial singarmoniz: muhim ~ mühüm, turib ~ türüp, uzil ~ üzül, ko'chib ~ köčüp, yo'liqib
qaldim ~ žolıyıp qaldım(o'rmon);

Denov qipchoq shevalarida singarmonizmning buzilish holati ham kuzatiladi: astar-paxtasini
qildirmoq - övdar ästärini ävdarip täšlädi, noma'qul buzoqning go'shtini yemoq ~ arriq
qo'shtini žepsän, qulog'ingga tanbur chertyapmanmi, ~ qulayinä čildi:ma čilipdima,

*Turkch doktorant. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Folklorshunoslik
metodologiya kafedrası o'qituvchisi. E-pochta: anvarbekturdialiyev@list.ru

yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq ~ žerdi astida žilān qivirdasa bilmāq, to'rva qoqdi ~ xahar qāxti, zig'ir yog'dek ko'ngilga urdi ~ zīyir žāvidek žurekka urdi.

Diftong. Barcha singarmonizmli shevalarda bo'lgani kabi denov ž-lovchi shevalarida ham diftong hodisasi kuzatiladi:

ʷō diftongiga misollar: o't ~ ʷöt, o'chadi ~ ʷöčädi, o'ttiz ~ ʷöttiz, o'n besh ~ ʷönbeš;

ʷö diftongiga misollar: o'lan ~ ʷölän, o'rdak ~ ʷördäk, o'zim ~ ʷözim, o'lim ~ ʷölüm, o't ~ ʷöt, ul ~ ʷül|| ʷöl, o'roq ~ ʷorāq, unday ~ ʷöndāj, o'n ~ ʷön;

ʷe diftongiga misollar: echki ~ ʷečki, ellik ~ ʷeliv|ʷellig, elak ~ ʷeläg, ehson ~ e'sān||ʷe:sān.

Progressiv assimilatsiya:

Dš ~ šš(sh) podsho ~ päššä;

nd ~ nn indab ~ innäp, enli ~ jenni, mindirgan ~ mīnnür̄yan, indaydi ~ innäjdi, kelganda ~ kegännä;

ld ~ ll aldaydi ~ älläjdi||älläjdi, aldarko'sa ~ ällärkösä, aldab ketdi ~ älläp||älläp ketti;

ds ~ ss didsiz ~ dissiz, hidsiz ~ hissiz;

ts ~ ss ketsa ~ kessä||kässä, otsin ~ ʷässin, betsiz, aytsam ~ äjssäm, (do'stlar ~ dossar);

nl ~ ll dushmanlarga ~ dušmannar̄ya, deganlar ~ degännär, yaqinlashganda ~ jaqinlashganda to'manlab ~ tömännäp, ko'kanladi ~ kökännädi;

Tn ~ nn qatnab ~ qannap, qatnaydi ~ qannajdi, ittifoq ~ intipaq||intipāq;

kunlari ~ künnäri;

čs ~ čč ochsang ~ aččan||āččän;

ql ~ ll manglay ~ mänñäj, olinglar ~ āññär, qilinglar ~ qññar, solinglar ~ sāññär|sāññär bo'linglar ~ böññär||böñär;

pm ~ pp kelyapmiz ~ keläjäpps, aytyapmiz ~ ajtajappis, boryapman ~ barajappan.

regressiv assimilatsiya:

zč ~ čč qizcha ~ qičča, izchil ~ iččil, ozchilik ~ äččilik, yozsa ~ jässä, tuzsiz ~ tüssüs; ruscha ~ rüččä, bo'zchi ~ böčči;

šč ~ čč ishchi ~ ičči, qushchi ~ qučči,

čs ~ čč qochsa ~ qässä||qassa, uch so'm ~ üssöm qochsin ~ qässin, ichsang ~ issän, o'xshash so'm ~ önüssöm;

nl ~ ll deganlar ~ degällär, olganlar ~ ägällär, omonlik ~ amällir̄, tanladi ~ talladi, to'rt kishi ~ törküllik;

tl ~ ll otlantirib ~ älläntirib, yigitlar ~ žigillär, adolatli ~ ädälälli, qutli ~ qullī, kulfatli ~ kulfatli qutlug' bo'lsin ~ qollivosin, rahmatli ~ rahmälli;

nm ~ mm tinmay ~ timmäj, tinmasdan ~ timmäsdän, ishonmanglar ~ išämmänlā, ko'mma ~ kömmä;

lm ~ mm bilmadim ~ bimmädim;

rn ~ nn urnaydi ~ unnäjdi;

rt ~ tt marta ~ mättä, o'rnidan turdi ~ önnidän türdi, surnay ~ sünnäj, ertalab ~ ertalab chorvadorlar ~ čarvadallar, erta-mertan ~ ettanmettan;

hk ~ kk mahkam ~ mäkkäm, mahkama ~ mäkkämä;

Dissimilatsiya. So'z boshida dissimilatsiyaga uchrashi kuzatiladi: maqol ~ naqāl, mahabbat ~ nābādā|nāvādā;

shevada **l** tovushi dissimilatsiyaga uchrashgan **r** tovushi bilan almashinib keladi: zarar ~ zārāl|zālāl, devor ~ düvāl, musulmon ~ müsürmān,

Tovush tovushishi talaffuzda quyidagi hollarda yuz beradi:

B tovushi ba'zan tushib qoladi: baqirma ~ aqirma, do'mbira ~ domira, rais bo'lmasa ~ rais bo'lmasa, ömäsä, kerak bo'lsa ~ keräg (b)ösä;

yozib yotmoq ~ jāzi (b) jāt, ko'rishib yurmoq ~ köriši(b) jür, hisoblab ber ~ hisāvlā(b) ber, ber ~ tävü(b) ber, yeb bo'ladimi ~ je(b) bōlāmā, olib bor ~ ā(b) bār, solib ber ~ solib ber;

quyidagi so'zlarda tovush ortishi ro'y beradi: o'taka ~ bōtākā, nomer ~ nūmber, hududlarda yakka holda kamalak ~ kāmālāk ko'rinishida ortadi. Bunday tovushlar

Qashqadaryo oraliq shevalarida ham qayd qilingan[Кудратов, 1968: 58].

undosh tovushida ham tovush tushishi kuzatiladi bunda unlilar cho'ziqroq talaffuz qilinadi:

mayli ~ xo:mājli, ko'p mashina ~ kö:māšin;

undosh yonma-yon kelganda so'z oxiridagi *d* tovushi tushishi kuzatiladi: *baland ~ balan,*

parzan ~ parzan; bunday holat *t* undoshi bilan ham kuzatiladi: *to'rt ~ tor, g'isht ~ yış, do'st ~*

mušt ~ muš; so'z o'rtasida ham mavjud: *aytgansiz ~ ajkānsis, aytsin ~ ājsin//ajqansiz;*

undosh orqa *q, γ* undoshlarida ham tovush tushishi kuzatiladi: *to'g'rab ~ tor: ab, yig'ladi ~*

qutluq ~ qutlu, qichqir ~ qičir, qirqtim ~ qirtim, qirq besh ~ qırbeš, qattiq ~ qātti, sariq ~

buloqqa ~ bulāqa, o'choqqa ~ o'čāqa;

undosh *tsiya. o'rog'i ~ 'orāyī, tayoq ~ tajayī, chuqur ~ čuyur, choqib ~ čayiv, bibi ~ bivī,*

lavim, tobim ~ tavum, obod ~ āvād, tep ~ tevip, chopaman ~ čävämān, qilib edim ~

edim.

Kelishik. Denov qipchoq shevalarida egalik qo'shimchalari o'zbek adabiy tili bilan bir xil bo'lib,

ularning old va orqa qatorligi bilan ko'p variantlilikni hosil qiladi. Qipchoq lahjasida asosiy

qo'shimchalarda ularning ko'rinishlari qariyb 60ga yaqin ularning miqdor jihatda ko'p

farqlarga ega bo'lishi kabilar bilan izohlanadi[Rajabov, 1996: 165]. Denov qipchoq shevalarida

egalik qo'shimchalari adabiy tildan ko'p variantlilik bilan farqlanadi.

Ko'plik

-im, -im, im, -üm, -um -imiz, -imiz, -ümüz, -ümüz;

-in, -in, -ün, -un; -in, -in, -ün;

-i, -i, -i, -i, -i, -u(i), -lari, -lari;

undosh shaxs ko'plikda ba'zan qo'shimchalarning oxirida jarangsizlashish kuzatiladi: *-miz ~*

-miz ~ mis, -imiz ~ imis, -imiz ~ imis. Qipchoq lahjasidagi ko'p variantlilik o'g'uz lahjasida

ham mavjud[Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 16]. Shevada jarangsiz *p* undoshi

bilan affikslari qo'shilganda jarangli *b* undoshiga o'tadi: *sop ~ sābi, top ~ tābi, ip-žip ~ žibi,*

gibim. Singarmonizm qonuni saqlangan sheva bo'lgani uchun qipchoq guruh shevasida

undosh affiksi variantlari bilan (*-niki, -niq, -diki, -diq, -tiki, -tiq*) qo'llanadi: *ularniki ~ ulardiq,*

umardiq. Ba'zi qipchoq shevalari bo'lgani kabi Denov shevasida ham *-lar, -larning*

undosh affikslari hurmat ma'nosini ifodalaydi, bu tahlit hurmat ma'nosini ifodalash qarluq guruh

shevalarining xususiyati hisoblanadi: *qip. Ātām rājāndā qaldī, mā:limnār keldi; qar. ājimlār*

kelidilar.

Kelishik. O'zbek adabiy tili bo'lganidek qipchoq guruh shevalarida ham 6tani tashkil

qiladi. O'zbek shevalarida ya'ni singarmonizmni yo'qotgan shahar shevalarida kelishiklar

ko'rsatkichi 4-5ta bo'lib, Toshkent-Farg'ona guruh shevalari 5 kelishikli, Sam-Buxoro, Qarshi

guruh shevalari esa 4 kelishikli sheva hisoblanadi. O'rganilayotgan hudud qipchoq guruh

shevasida ham kelishiklar soni 6ta, ammo hududda yashayotgan qarluq guruh shevasining ta'siri

natijasida ayrim o'rinlarda tushum-qaratqich, o'rin-payt-jo'nalish kelishiklarining ko'rsatkichi

tar-ni va -ga ko'rsatkichiga ega bo'ladi. Bunday o'zgarish juda siyrak tarqalgan. Shahar

shevasidan uzoq joylashgan ya'ni ta'sirga uchramagan hududlarda kelishiklar ko'rsatkichi o'z

aroqida qo'llanadi.

Qaratqich kelishik. Ko'rsatkichi yo'q.

Qaratqich kelishigi. Qipchoq guruh shevalarida qaratqich kelishigi *-ni, -ni, -in, -in, -din, -din,*

-in, -in, -un, ün, -nun, -nün (lablangan unlilar bilan qo'llanishi siyrak uchraydi)

ko'rsatkichlariga ega. Unli va **m, n, ŋ** tovushlaridan keyin *-ni, -ni affikslari keladi:*

otaning ~ enāni, otaning ~ atani, qudaning ~ qudani kabi. *g, γ, v, ž, j, z, l, r* undoshlaridan

keyin *-din, -din affikslari: elning ~ eldin, tog'ning ~ tävdin, bizning bachalar ~ bizdin bāčālār,*

uning ~ üjdin qo'llanadi. *k, q, p, s, t, š, č* undoshlaridan keyin *-tin, -tin affikslari cho'michning*

~ čömičtin, qo'shiqning ~ qošiqtin, otning ~ ättin, ishning ~ ištin, qishloqning ~

qışlaqtin||qışlaqtin,

Denov qipchoq guruh shevasida Sherobod shevasida mavjud bo'lgan lablangan variantlari tarqoq

(mafzol) holda uchraydi: *qo'zining ~ qozunun, tulkinining ini ~ tülkünün ini;*

Jo'sh, Sherobod bo'lgani kabi qaratqich kelishigining z undoshi bilan tugagan ba'zi so'zlarda -*zi*, -*zi* (*biz+ni*, *siz+zi*) shaklida qo'shiladi va progressiv, to'liq assimillatsiya kuzatiladi. Bundan tashqari *biz+di*, *sizdi* shakli ham hududning ba'zi shevalarida saqlanib qolgan.

Qarluq guruh shevalarga yondosh qishloq shevalarida qarluq lahjasining ta'sirida tushum va qaratqich kelishik ko'rsatkichlari aralash qo'llanishi kuzatildi: *tolning butog'i ~ taldi pitay sutning foydasi ~ sitti pайдasi*; qaratqich-tushum kelishigining -ni\~ni tarzida qo'llanishi qaratqich-tushum kelishik ko'rsatkichlarining *oralig bosqichda* turganligini ko'rsatadi. Xorazm (o'g'uz-qipchoq) hamda Baliqchi kabi shevalarda qaratqich kelishigi qo'shimchasi -*ni*, -*ni*, -*di*, -*di*, -*ti*, -*ti* ko'rinishiga ega [Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 36]. O'zbek adabiy tilida bo'lgani kabi qipchoq guruh shevalarda ham qaratqich kelishigining belgisiz qo'llanishi mavjud: - *Bu shāxlarī (šāxlarinī)* sānini biz ālālmāymiz ūni, endi sōñi sōzlar ārālāšib ketib tāžiklār hām bar, o'ris ham bar, qonyīrāt hām bar e ārālāšib ketādidā.

- Sūnān hāzīr ātam minān bittā: ākām qājttib kep ākāmiz ekki ājāyī joy, *bīrāvī* beridān joy *bīrāvī* mineridān joq.

Tushum kelishigi. Tushum kelishigi qo'shimchasi unli tovushlar va sporadik ravishda m, n, r undoshlaridan keyin -ni, -ni (bazan -di, -di) *ešākni žüllādi*; g, γ, v, ž, j, z, l, r undoshlaridan keyin -di, -di *māldi süvlā, ariqtayī süvdi bašqarip*; k, q, p, s, t, š, č tovushlaridan keyin esa -ti, -ti *quštī qapasqa saldi* tarzida qo'llanadi. Tushum kelishigining lablangan varianti qashqadaryoda ko'chib kelgan ayrim yoshi ulug'lar (Hazarbog' markasi(sentr), 1-bo'lim, 3-bo'lim) natijasi tarqoq ko'rinishda uchraydi, faol emas o'rta va yosh qatlamda lablangan varianti uchramaydi. Barcha shevalarda bo'lgani kabi belgisiz qo'llanadi.

Jo'nalish kelishigi. Shevalarda jo'nalish kelishigi -*ga*, -*gā*, -*a*, -*ā*, -*jā*, -*na*, -*nā*, -*ka*, -*kā*, -*qa*, -*qā* kabi shakllari mavjud [Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 43]. Qipchoq shevalarida bo'lganidek; g, γ, v, n, m, ž, j, z, l, r undoshlaridan keyin -*ga*, -*ya* *kōzgā, hāvlisigā, kōndigā, ūjigā, žājgā, bātālāngā*; k, q, p, s, t, š, č undoshlaridan keyin -*ka*, -*qa* *ūrūšgā, āškā, tūqā* affiskslari qo'llanadi. qipchoq guruh shevalarida jo'nalish kelishigi affiksi qisqarib -*a*, -*a* shaklida qo'llanadi. bunday qisqarish ko'proq I, II shaxs egalik affikslaridan keyin ishlanadi: *sōzim+ā, qazan+a, ākān+ā* kabi. Jo'nalish kelishigining qisqargan ko'rinishi Surxondaryo 3-lovchi shevalarining Sherobod, Oltinsoy, Qumqo'rg'on, Sho'rchi, Saiosiyo, Uzun, Boysun, Angor, Muzrabod va boshqa shevalarda ham mavjudligini kuzatdik. Shahar shevalarida bo'lgan o'rin-payt va jo'nalish kelishigi ko'rsatkichining farqlanmasligi yuqorida sanalgan hududlar 3-lovchi shevalarida ham ayrim o'rinlarda mavjudligi kuzatildi. Bunday o'zgarish hududlar yashovchi sheva vakillarining 15-40 yoshlar oralig'ida ko'proq kuzatiladi. Bu shahar shevasining ta'sirida natijasida hosil bo'lgan.

O'rin-payt kelishigi. -*da*, -*dā*, -*ta*, -*tā* o'rin-payt kelishigining ko'rsatkichidir. egnida -*imā*, -*imā* tog'da~tāvdā, kuzda~kūzdā. O'rganilayotgan hudud Laqaylar shevasi va Loyliq qishlog' shevasida -*de*, -*te* ko'rsatkichi uchraydi *o'tirgan yerda ~ otīryan žeredē, mehnatda ~ mehnatda*. Qishloq, o'roq kabi chuqur til orqa undoshi bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda *qishloqda o'tirgan ~ qīšlaq+qa otirgān, o'roqqa qolgan ~ oraq+qa qalyan*.

Chiqish kelishigi. Qipchoq guruh shevalarida singarmonizm qonuniga muvofiq -*dan*, -*dān*, -*tan*, -*tān*, -*nan*, -*nān*.

- *ādamlā:ni tāyladan kōčirib žājlāštirdi*.

- *chālyā yāyiptan āvāz kegān*.

- *kamāni bāsqannan keyin*.

Unli tovushlar va g, γ, v, ž, j, z, l, r undoshlaridan keyin -*dan*, -*dān* *daladan ~ dālādān, kōldān ~ köldān, qirdan ~ qīrdan, choydan ~ čājdān*; k, q, p, s, t, š, č undoshlaridan keyin -*tan*, -*tān* *qishloqdan ~ qīšlaqtan, ishdan ~ ištān*; n, m, ŋ undoshlaridan keyin -*nān*, -*nan* (sporadik ravishda -*dan*, -*dān* ham keladi) *mol shoxidan ~ māl šaxinnan, odam tilidan ~ ādām tilidan, bājlānādi, tongdan turib ~ tāñnān türip*;

Denov laqay va nayman 3-lovchi shevalarida -*den*, -*ten*, -*nen* *sovg'adan (hājdē)den, o'rikdan ~ vōrikten, tuxmatdan ~ tōhme'tten, akangdan~āke'ñnen* (bu guruh shevalarida ikkinchi bo'g'indagi e^o tovushi e va ā tovushlari oralig'idagi tovush sifatida tushadi).

O'rganilayotgan hudud shevasida -dan chiqish kelishigi ko'rsatgichi o'rin-payt, qo'llanish kelishik qo'oshimchalari bilan parallel kelishi yoki ularning o'rinda qo'llanishi bundan tashqari [dunyoda] e:ki 'ölim bar, qoldan[qo'lda] tig'amiz, sannaqan'i adamdan [qovunni] körip rän älädi, [qovunni] xabar alyanmiz. Bundan tashqari A. G'ulomov qayt etgan bir so'z tarkibida qo'llanish kelishigining ketma-ket qavatlanib kelishi ham qarilar nutqida bor bo'lib bundan bu tarzda so'z qo'llamaydi: uch so'mdan sotildi ~ üssömdängä sätildi, tekinga [tekinä] ~ tekinängä pi'nsä älärdi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 54].

Grammatik son kategoriyasi. O'zbek adabiy tilida ko'plik qo'shimchasining bitta **-lar** mavjud bo'lib, shevalarda bu qo'shimchaning variantlari bor. Ma'lumki qadimgi turkiy tilida va eski o'zbek tilida otlardagi grammatik ko'plik ma'nosi, asosan, -lar, lār affiksi orqali ifodalanib kelingan. O'rganilayotgan hudud qipchoq guruh shevalarida singarmoniz hodisasi mavjudligi sabab ko'plik qo'shimchasining -lar, -lār, -nar, -nār, -la, -lä varinatlari mavjud. Qipchoq guruh shevasida a, i, o, u unililari bilan tugagan va tarkibida q, γ, x undoshlari mavjud so'zlarga ko'plik qo'shimchasining -lar shakli, ä, e, i, ö, ü unililari hamda q, γ, x undoshlari qatnashmagan so'zlarga esa -lār ba'zi shevalarda -ler shakli qo'llanadi. *Otalar ~ otalar, äkälär, kemalar ~ kämälar.* Denov qipchoq guruh shevasida ko'proq Laqaylar shevasi m, n, η tovushlaridan keyin -lar qo'shimchasi qo'shilganda adamnar, me:männär shaklida talaffuz qilinadi. A.Mamatqulov Sherobod shevasida *tiqinglar ~ tiyinqar, bo'linglar ~ bo'linglar ~ terinqar* kabi fe'llarda ko'plik qo'shimchasining -ar, -är shakli qo'shilgan deb ta'kidlay beradi [Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 7]. Loyliq qishloq do'rmon shevasida yoshi kattalar nutqida dehqonlar ~ dījqānār, qopqonlar ~ qāpqānnār ko'rinishida mavjud. Bunday qo'llanish Shimoliy Tojikiston shevalarida ham qayd qilingan [Ўзбек халқ шевалари морфологияси, 1984: 7]. Namangan viloyatining Yangqo'rg'on, Sherobod tuman shevasida z, l, m, š, r, n, η tovushlaridan so'ng **-dar, -dār** affiksining qo'llanishi Denov qipchoq guruh shevasida ham mavjud: *toshlar ~ tāšdar, mollar ~ māldar, qizlar ~ qīzdar* kabi. A.Murodov Surxondaryo Qo'ng'iro't shevasida mavjud bo'lgan men olmoshiga **-lar** affiksining qo'shilishi ya'ni *mennār (dājrādä süv köp 'önnän, mennār ötišim qijin)* shakli mavjudligini ta'kidlaydi. Biz o'rganayotgan hudud qo'ng'iro'tlari nutqida bu hodisa kuzatilmadi. -ar affiksi ham Denov ž-lovchi shevalarida kuzatilmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.176
2. Qudratov, T. Ўзбек тилининг оралик шевалари (Шахрисабз, Яккабоғ, Чирокчи ва Қашқаддўрий районларидаги оралик шевалар материаллари асосида). Филол. фанлари кандид. дис. Тошкент. 1968. – Б. 58
3. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. Тошкент: Фан, 1984. – Б.54-bet
4. Режабов Н. Ўзбек шевашунослиги. Тошкент: Ўқитувчи. 1996. –Б. 165
5. Решетов В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962. – Б. 78.
6. Носиров М. Сурхондарё шевалари бўйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. № 5. – Б. 67.
7. Рахимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). Тошкент: Фан, 1985. – Б.13.
8. Turdaliyev A.X. Denov kichik dialektal zonasining xususiyatlariga doir, Oltin bitiglar, 2022. №3 –Б. 105-116.
9. Turdaliyev A.X. Denov qarluqlar shevasida ko'plik affiksining qo'llanishi. Ma'mun akademiyasi. № 2023-6/4.–Б. 207-209.